

QORAQALPOĞISTON SHAROYITIDA PIROPLAZMIDOZLARNING TARQALISHI, DAVOLASH VA OLDINI OLISH CHORA- TADBIRLARINI TADQIQODLARDA O'RGANISH NATIJALARI

Kudaybergenov Timur

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik
va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Annotatsiya. Maqolada qoramollarda uchraydigan piroplazmidioz kasalligini kelib chiqishi va uni oldini olish chora-tadbirlari bo'yicha tadqiqot natijalari va adabiyot manbalari tahlili ma'lumotlari berilgan.

Kalit so'zlar. Proplazmidoz, babezioz, protozoy, teylerioz, surtma, *Theileria annulata*, *Theileria mutans*, *Theileria orientalis*, *Nuttalia*, *Hyalomma detritum*, *Hyalomma anatolicum*.

Аннотация. В статье приведены сведения по анализу литературных источников о происхождении тейлерииоза крупного рогатого скота и мерах его профилактики.

Ключевые слова. Проплазмидоз, бабизииоз, простейшие, тейлерииоз, мазок, *Theileria annulata*, *Theileria mutans*, *Theileria orientalis*, *Nuttalia*, *Hyalomma detritum*, *Hyalomma anatolicum*.

Annotation. The article provides information on the analysis of literary sources on the origin of the disease theileriosis in cattle and measures for its prevention.

Keywords. Proplasmidosis, protozoa, theileriosis, smear, *Theileria annulata*, *Theileria mutans*, *Theileria orientalis*, *Nuttalia*, *Hyalomma detritum*, *Hyalomma anatolicum*.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF 4947-son O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 28-martdagi PF 5696-son "Veterinariya chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 28-martdagi PQ 4254-son "O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi va 2020-yil 29-yanvardagi PQ 4576-sonli "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Piroplazmidozlar — bu Piroplazma oilasiga mansub protozozlar tomonidan chaqiriladigan kasalliklar bo'lib, ko'pincha uy hayvonlari orasida

keng tarqalgan va katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Ushbu kasalliklar kanalar orqali yuqadi va hayvonlarda anemiya, isitma, zaiflik, ishtahaning yo'qolishi kabi alomatlar bilan kechadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, quruq va yarim quruq iqlimi hamda chorvachilikda yetakchi sohalardan biri bo'lgan hudud sifatida, piroplazmidozlarning tarqalishiga qulay muhit hisoblanadi. Shunday ekan, ushbu kasalliklarning oldini olish, nazorat qilish va davolash chora-tadbirlari katta ahamiyat kasb etadi.

Piroplazmidozlarning tarqalishi

Qoraqalpog'iston Respublikasida piroplazmidozlarning asosiy tarqatuvchisi — Ixodidae oilasiga mansub qattiq teri bilan qoplangan kanalar hisoblanadi. Ular asosan may va iyun oylarida faol bo'lib, chorva mollari va yovvoyi hayvonlar orasida kasallikni tarqatadi. Chorva mollarning teyleryozi Piroplazmida turkumi, Theileriidae oilasiga mansub bo'lgan sodda parazitlar tomonidan qo'zg'atiladi. Mazkur oila ikki: Theileria va Nuttalia avlodini o'z ichiga olgan. Bizning mamlakatimizda yirik shoxli hayvonlar teyleriozi 4 turdagi qo'zg'atuvchilar tomonidan chaqiriladi, bundan ikki turi Theileria annulata va Theileria sergenti kuchli kasallik chaqirish qobiliyatiga ega, qolgan ikki turi Theileria mutans va Theileria orientalisni virulentligi biroz pastdir[2].

Klinik belgilari. Zararlangan yaylovlarda boqilgan hayvonlarda kasallikning inkubatsion davri 12-21 kun va undan ham ko'proq davom etishi mumkin. Qoramollar teylerioz kasalligi o'tkir va yarim o'tkir ko'rinishda kechib, boshqa xo'jaliklardan keltirilgan hayvonlar orasida asosan o'tkir ko'rinishda kechadi. Kasallik o'tkir kechganda klinik belgilari dastlab limfa tugunlarining asosan ko'krak oldi, yelin usti va boshqa limfa tugunlarining notekis kattalashuvini ko'rishimiz mumkin. Limfa tugunlari 2-4 marotaba kattalashgan, paypaslaganda qattiq va og'riqli bo'ladi. Kasal hayvonlarni tana harorati 41°C gacha, ayrim paytda undan ham yuqori, ko'tariladi, shu bilan birga ularni ishtahasi pasayadi. Kasallik rivojlanishi bilan 3-4 kunida hayvon ishtahasi mutlaqo yo'qoladi, kavsh qaytarilishi to'xtaydi. Kasallik yengil kechganda ishtahasi saqlanishi mumkin. Natijada hayvonlarning ovqat hazm qilish tizimlarida muammolar yuzaga kelib, hayvonning mahsuldorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi[3].

Kasallik yarim o'tkir kechganida ham limfa tugunlari kattalashadi, tana harorati 41°C gacha va undan yuqorigacha ko'tarilib 2-3 kundan so'ng pasayib, so'ngra yana ko'tariladi va oz-ozdan o'zgarib kasallikning oxirigacha yuqori darajada davom etadi. Bu ko'rinishda kechayotgan kasallik 2-3 hafta davom etadi. Ko'zga ko'rinarli shilliq pardalar biroz giperemiyalangan bo'lib, so'ngra oqargan va unga ko'plab nuqtasimon qon quyilgan boladi. Puls va nafas olishi tezlashgan, hayvonlarni ishtahasi yo'qolgan, kasallikning boshlanish davrida

ichaklar peristaltikasi kuchayib, ich ketishi sodir bo'lsa, u tezda ich qotishi bilan almashadi, chunki ichaklar atoniyasi paydo bo'ladi[3].

Tadqiqotlarimiz natijasida shuni aniqladik ki, Qoraqalpog'iston hududida chorva mollari orasida piroplazmoz va teylerioz kabi piroplazmidoz kasalligi turlari keng tarqalgan. Piroplazmozni keltirib chiqaruvchisi — Piroplazma turi bo'lib, qizil qon tanachalarini (eritrotsidlarni) zararlaydi. Teylerioz esa Theileria turi orqali kelip chiqadi va limfatik tizimga zarar yetkazadi.

Tajriba-tadqiqotlar

Qoraqalpog'istonda o'tkazilgan tajriba-tadqiqotlar davomida chorva mollari orasida piroplazmidozlarning tarqalish darajasi va ular bilan kurashish usullari o'rganildi. O'rganishlar natijasida quyidagi natijalar aniqlandi:

1. Kanalarning faoliyati: Tajriba davomida bahor va yoz oylarida kanalarning faoliyat bosqichlari aniqlanib, ayni shu davrda chorva mollarining eng katta xavf ostida bo'lishi qayd etildi.
2. Kasallik aniqlanish darajasi: Tadqiqot davomida 300 bosh chorva mollari tekshirilgan bo'lib, ulardan 45 foizida piroplazmoz va 25 foizida teylerioz kasalligi aniqlangan.
3. Veterinariya preparatlari samaradorligi: Turli xil piroplazmidozga qarshi preparatlar sinovdan o'tkazildi. Imidokarb dipropionat, Buparvalek preparati kabi dorilar eng samarali deb topildi. Ushbu preparatlar kasallikning klinik belgilarini kamaytirishda va davolashda yaxshi natija berdi.
4. Buparvalek preparatini hayvonning 100 kg tirik vazniga 5 ml dan muskul orasiga jo'natish orqali teyleriozni davolashda 98 % natija berishi tadqiqotlarda o'rganildi. Bu dozada qo'llanilgan preparat organizmda hech qanday nojo'ya ta'sir qilmasligini aniqladik.

Oldini olish chora-tadbirlari

Qoraqalpog'iston sharoitida piroplazmidozlarning oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir:

1. Kanalarga qarshi kurash: Kenjalarga qarshi kimyoviy preparatlar bilan ishlov berish, ayniqsa, chorva mollari turgan joylarni dezinfeksiya qilish katta ahamiyatga ega. Har bahor va yoz faslida chorva mollarini muntazam ravishda antiparazitar preparatlar bilan davolash lozim.
2. Profilaktik dorilar qo'llanilishi: Piroplazmidozga qarshi profilaktik dori vositalarini qo'llash orqali kasallik tarqalishini kamaytirish mumkin. Chorva mollariga imidokarb kabi dorilarni o'z vaqtida berish profilaktik choralar sifatida tavsiya etiladi.
3. Qoramollarning har 100 kg tirik vazniga buparvalek preparatini 5 ml dan muskul orasiga qo'llashda 15 kungacha bo'lgan mudatta profilaktik samaradorligi aniqlangan.

4. Veterinariya nazorati: Chorva mollari veterinariya nazorati ostida muntazam ravishda tekshirilishi kerak. Kasallik aniqlangan hollarda, darhol davolash choralari ko'rilishi lozim.

5. Chorrachilik joylarining tozaligi: Fermalarda sanitariya-gigiyena qoidalariga qat'iy amal qilish, parazitlar uchun qulay bo'lgan sharoitlarni yo'q qilish muhimdir.

6. Ko'chma chorva mollari nazorat qilish: Ko'plab chorva mollari yozgi yaylovlarga ko'chirilgan vaqtda, ular ko'p hollarda kanallardan kasallik yuqishiga duchor bo'ladi. Yaylovlarda ham profilaktik choralar ko'rilishi zarur.

Xulosa

Qoraqalpog'iston sharoitida piroplazmidozlarning tarqalishi iqlim va geografik sharoitlar bilan bog'liq holda yuqori darajada bo'lib, chorrachilik sohasiga katta iqtisodiy zarar yetkazmoqda. Ushbu kasalliklarning oldini olish uchun ko'riladigan chora-tadbirlar orasida kanallarga qarshi kurash, profilaktik dorilar qo'llash va veterinariya nazorati muhim ahamiyat kasb etadi. Tajriba tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, imidokarb, buparvalek va boshqa preparatlar kasallikni samarali davolashda va oldini olishda yaxshi natija bermoqda. Chorrachilik joylarida sanitariya qoidalariga qat'iy rioya qilish va profilaktik tadbirlarni kuchaytirish orqali piroplazmidozlarning tarqalishini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Паразитология и инвазионные болезни сельскохозяйственных животных. К.И.Абуладзе 1990 г
- 2.A.O'rmanov. Teylerioz kasalligini davolash va uni oldini olish chora-tadbirlari TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti Qarshi irigatsiya va agrotexnologiyalar institute "O'zbekistonning janubiy hududlarida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlashning muammo va istiqbollari" mavzusida anjuman Qarshi 2024
- 3.Parazitologiya fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. P.S.Haqberdiyev, Sh.X.Qurbonov, Toshkent, 2015.
- 4.Qoramollarning piroplazmidoz kasalliklarini davolashda yangi preparatlarni qo'llash usulini takomillashtirish. P.S.Haqberdiyev "Zooveterinariya" jurnali 2013 №7-8 ,21-22-bet
- 5.Piroplazmidozlarning epizootik holati va qarshi kurashish chora-tadbirlari. To'xtamishev N, Bobonazarov E. Samarqand-2021.